

## SAMARALI RAHBARLIKKA XOS XISLATLAR

**O'ktamova Shahnoza**  
**Hamdamova Gulhayo**  
**Boymurodova Diyora**  
Maktab menejmenti talabalari

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola samarali rahbarning asosiy xisatlari va öziga xosliklarini ifodalab beradi.

**Kalit soʻzlari:** Rahbarlarning turlari, rahbarlik kompetensiyalari, boshqaruv uslublari.

Rahbar aniq, chuqur va keng bilimga ega bo'lishi, uni doimo to'ldirib va yangilab borishi kerak. Aks holda uni faoliyat ko'rsatishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning bilan birga o'zi boshqaradigan xodimlarni tarbiyalash rahbarning diqqat markazida bo'lishi kerak. Har bir rahbar doimiy ravishda xo'jalik, tashkilotchilik tarbiyaviy ishlarini olib borishi zarur.

Tashkiltlarda rahbarning asosiy ishi odamlar bilan ishlashdan iboratdir. Tashkilot rahbari amalda o'zining tashkilotchilik qobiliyatini ko'rsata olgandagina tashkilotchilik rolini muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Buning uchun rahbar, o'z ishini oldindan tuzilgan shaxsiy rejasiga asosan olib borishi zarur.

Shu jumladan ham mamlakatimiz rahbari ustuvor 7 yillik strategiya tuzishi davlatni yuksaltirishga qaratilgan. Rejalar ulkan bo'lgandan keyin harakat ham ayni shunga monand bo'lsagina ishda unumdorlik bo'ladi. Tashkilotni maqsadlariga erishish yo'nalishidagi faoliyatini samarali boshqarish uchun rahbar o'z atrofiga mutaxasislarni to'g'ri tanlab olishi va yig'ishi lozim.

Binobarin Ferrari mashinasini yaratgan Enzo Ferraridan intervyu olingan paytida jurnalist tomonidan berilgan savollarga uning mutaxasislari birma-bir javob berishadi. Intervyu yakunida esa, Enzo Ferraridan so'rashadi, siz nega hech bir savolimizga javob bermadingiz deb, shunda Enzo Ferrari men o'z atrofimga eng kuchli va eng tajribali sara mutaxasislarni jamlaganman, ularning bilim, malaka va ko'nikmalari orqali bu natijalarga erishdim. Bu bilan Enzo o'zining rahbarlik mahorati naqadar ajoyib va chiroyli tashkil etilganini ko'rsatdi. Rahbar shaxs o'z atrofiga malakali mutaxasislarni to'plashi darkor toki rahbarlikning asosi kuchli va samarali bo'lmog'i uchun.

Tashkilotni maqsadlariga erishish yoʻnalishidagi faoliyatini samarali boshqarish uchun rahbar sardorlik xislatlariga ham ega boʻlmogʻi zarurdir. Sardorlik--bu odamlarni va guruhlarini maqsadlarga erishish yoʻlida ishlashga undovchi taʼsir oʻtkazish qobiliyatidir. Boshqarish xulq atvorini oʻrganish bilan shugʻullanuvchi olimlar samarali sardorlikning ahamiyati omillarini aniqlashga uch nuqtai nazardan yondashadilar, bular xulq atvorli yondashish, vaziyatli yondashish va shaxsiy xislatlar nuqtai-nazardan yondashish. Hozirgi zamon sardorlik nazariyasi koʻproq vaziyatli yondashishga eʼtiborini qaratmoqda. Bunga koʻra, rahbarning u yoki bu shaxsiy xislatlarini, u yoki bu xulq-atvori va oʻzini tutishini namoyon qilishi aniq vaziyatga bogʻliq.

Rahbarlik uslubi –deb alohida rahbarning unga xos boʻlgan doimiy xulq-atvori, boʻysunuvchilarga boʻlgan munosabati, qarorlar qabul qilishi va masalalarni hal qilishga yondashishlari tushuniladi. Rahbar uslubining oʻziga xos xususiyatlarida biri oʻz vaqtini doimo hisobga olib yurish hisoblanadi. Rahbarlikning quyidagi uslublari mavjud: AVTOKRATIK, DEMOKRATIK, LIBERAL.

AVTOKRATIK uslub-bunda rahbar qoʻl ostidagilarining faoliyati uchun javobgarlikni oʻz zimmasiga toʻliq oladi.

DEMOKRATIK uslub- bunday rahbarlik turida rahbar oʻz faoliyatini oʻzining guruhidagi jamoa aʼzolariga tayangan holda olib boradi.

LIBERAL rahbarlik uslubi. Bunda rahbar faollik koʻrsatmaydi, u faqat axborot manbai boʻlib xizmat qiladi yoki uni oʻzi yigʻadi. Ishlab chiqarish va xoʻjalik masalalarini muhokama qilish rasmiy xarakterga ega boʻladi, ishda oʻzini oʻzi tanqid qilish yoʻq boʻladi.

Demak, tashkilotda rahbarlik qilishda ishning mohiyatiga, ijrochilar darajasiga va vaziyatga qarab rahbarlikning turli uslublari qoʻllanilishi mumkin. Rahbar ushbu uslublardan vaziyatga qarab aralash holatda qoʻllay olsa samaraning eng yuksak choʻqqisiga yetadi.

Iosif Stalin shunday rahbar boʻlganki, u oʻz xodimlarini ish lavozimidan boʻshatayotgan payti hatto gapirib oʻtirmagan. Stalin gugurt ishlab chiqaruvchini huzuriga chaqirtirgan va u kelgan payti bir quti gugurtni qoʻliga oladi va bittasini yoqmoqchi boʻladi, ammo sinib ketadi, ikkinchisini yoqmoqchi boʻladi ammo u ham sinadi, uchinchisini olganda yonadi lekin yona turib oʻchadi. Shunda gugurt ishlab chiqaruvchiga siz ketishingiz mumkin deyishadi, shu on men hech narsani tushunmadim nega meni chaqirishdi. Yordamchilardan biri siz ishdan boʻshadingiz deydi. Garchi qattiqoʻllik unga xos boʻlsada tan olish kerakki, Stalin rahbarlik bobida yetuk shaxs boʻlgan. Oʻzbek shoiri Muhammad Yusuf, Iosif Stalinni “U bir quyosh, ammo qora quyoshdir”, deya taʼriflagan.

Samarali rahbarlikka xos xislatlar deya soʻz borganda Abu Nasir Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida rahbarga xos boʻlgan 12 ta xislat haqida quyidagilarni taʼkidlaydi:

Birinchidan- toʻrt muchasi sogʻlom boʻlib, oʻziga yuklangan vazifani bajarishda biror asosdagi nuqson halal bermasligi lozim, aksincha u sogʻ-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishidir.

Ikkinchidan- tabiatan nozik farosatli boʻlib, suhbatdoshining soʻzlarini, fikrlarini tez tushunib tez ilgʻab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini aniq tasavvur qila olishi zarur.

Uchinchidan- u anglagan, koʻrgan, eshitgan, idrok etgan narsalarini xotirasida toʻla-toʻkis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi.

Toʻrtinchidan-zehni oʻtkir, zukko boʻlib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatleri va alomatlar nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur.

Beshinchidan- u fikrini aniq tushuntirish maqsadida, uni chiroyli soʻzlar bilan ifodalay olishi zarur.

Oltinchidan-u (ustozlardan) taʼlim olishga bilim, maʼrifatga havasli boʻlishi, oʻqish oʻrganish jarayonida sira charchamaydigan, mashaqqatlardan qochmaydigan boʻlishi zarur.

Yettinchidan-yeb ichishda ochofat boʻlmasligi, aksincha, oʻzini tiya olishi, (qimor, yoki boshqa) oʻyinlardan zavq huzur olishdan uzoq boʻlishi zarur.

Sakkizinchidan-u haq va haqiqatni, odil va haqgoʻy odamlarni sevadigan, yolgʻon va yolgʻonchilarni yomon koʻradigan boʻlishi zarur.

Toʻqqizinchidan-u oʻz qadrini biluvchi, nomus-oriyatli odam boʻlishi, pastkashlardan yuqori turuvchi, tugʻma oliyhimmat boʻlishi, ulugʻ oliy ishlarga intilishi zarur.

Oʻninchidan-bu dunyo mollariga, dinor va dirxamlariga qiziqmaydigan, (mol dunyo ketidan quvmaydigan) boʻlishi zarur.

Oʻn birinchidan-tabiatan adolatparvar boʻlib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr zulmni, mustabid va zolim odamlarni yomon koʻruvchi, oʻz odamlariga ham begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barcha yaxshilikni va oʻzi sevgan goʻzalliklarni ravo koʻruvchi boʻlishi zarur. Oʻzi haq ish oldida oʻjarlik qilmay, odil ish tutgan holda har qanday haqsizlik va razolatlarga qarshi turishi lozim.

Oʻn ikkinchidan-oʻzi zarur deb hisoblagan chora tadbirlarni amalga oshishida qobilyatli, sabotli, jurʼatli, jasur boʻlishi, qoʻrqoqlik va hadiksirashlarga yoʻl qoʻymasligi zarur deb hisoblaydi.

Bu xislatlarning rahbar kishida oltitasi mujassam boʻlsa, unda u shaxs rahbarlikni uddalay oladi lekin aksincha rahbarda bu xislatlarning beshtasi boʻlsa bu shaxs

rahbarlikka qiynaladi, albatta u tashkilotning faoliyatiga ham bog‘liq. Shu jumladan, agar tashkilot yangi ochilgan bo‘lsa, rahbarda bu xislatlarning beshtasi kamlik qiladi, agarda bu tashkilot uzoq yillardan beri o‘z faoliyatini olib borsa va bu tashkilotda rahbar o‘zgarishi bo‘layotgan bo‘lsa bunda beshta xislatga ega rahbar tashkilotni boshqara oladi. Bu qarashlar orqali rahbarda yaxshi fazilatlar bo‘lganligi ayni muddao. Rahbar ushbu xislatlarni o‘zlashtirgandagina faoliyat samarali bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1) Menejment N.K. Yo‘ldoshev G.E.Zoxidov “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti TOSHKENT--2018
- 2)” Fozil odamlar shahri” Abu Nasr Farobiy
- 3) Menejment tarixi Kravchenko. A.I. 2000-yil